# SON
# NUMERALS

Sonlar ikki turga bo‘linadi: sanoq (cardinal) va tartib (ordinal) sonlar.

## Sanoq sonlar

1 dan 12 gacha bo‘lgan **sanoq** sonlar:

| | | |
|---|---|---|
| 1 – one | 5 – five | 9 – nine |
| 2 – two | 6 – six | 10 – ten |
| 3 – three | 7 – seven | 11 – eleven |
| 4 – four | 8 – eight | 12 – twelve |

13 dan 19 gacha bo‘lgan sanoq sonlar 3 dan 9 gacha bo‘lgan sonlarga **-teen** qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi va bu qo‘shimcha ham urg‘u bilan talaffuz qilinadi:

| | | |
|---|---|---|
| 13 – thirteen | 15 – fifteen | 18 – eighteen |
| 14 – fourteen | 16 – sixteen | 19 – nineteen |
| | 17 – seventeen | |

20, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 90 kabi o‘nliklarni yasash uchun 2 dan 9 gacha bo‘lgan sonlarga **-ty** qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi:

| | | | |
|---|---|---|---|
| 20 – twenty | 40 – forty | 60 – sixty | 80 – eighty |
| 30 – thirty | 50 – fifty | 70 – seventy | 90 – ninety |

100 va undan keyingi yaxlit sonlar quyidagilar:

| | |
|---|---|
| 100 – hundred | 1000000 – million |
| 1000 – thousand | milliard – billion |

100 dan katta murakkab sonlar quyidagi tartibda yasaladi:

104 – one hundred (and) four

392 – three hundred (and) ninety two
1025 – a thousand (and) twenty five
2235 – two thousand (and) two hundred and thirty five
100.736 – a hundred thousand and seven hundred thirty six
5.219.348 – five million (and) two hundred nineteen thousand (and) three hundred fourty eight

## Tartib sonlar

1 dan 3 gacha bo'lgan **tartib sonlar** quyidagilardir:

**first** – birinchi
**second** – ikkinchi
**third** – uchinchi

Qolgan tartib sonlar (4 va undan keyingilari) sanoq sonlarga **-th** qo'shimchasini qo'shish yo'li bilan yasaladi.

fourth – to'rtinchi
fifth – beshinchi
sixth – oltinchi
seventh – yettinchi
eighth – sakkizinchi
ninth – to'qqizinchi
tenth – o'ninchi
eleventh – o'n birinchi
thirteenth – o'n uchinchi
fourteenth - o'n to'rtinchi
twentieth – yigirmanchi
*etc.*

Ayrim tartib sonlarning yasalishida quyidagi imlo o'zgarishlari yuz beradi:

1. Sanoq son **"y"** harfi bilan tugagan bo'lsa (twent**y**, fourt**y** va h.k.), **"y"** harfi o'rniga **"ie"** yoziladi va **-th** qo'shimchasi qo'shiladi:

twent**y** – twent**ieth**
thirt**y** – thirt**ieth**
fourt**y** – fourt**ieth**
fift**y** – fift**ieth**
sixt**y** – sixt**ieth**
sevent**y** – sevent**ieth**
eight**y** – eigt**ieth**
ninet**y** – ninet**ieth**

2. Quyidagi tartib sonlarning yasalishidagi imlo o'zgarishlarini eslab qoling.

five – fifth
twelve – twelfth
nine – ninth